



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

10-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 7-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda PF-224-son Farmoni ijrosi haqida”gi 1-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda PF-224-son Farmoni va Namangan viloyat hokimining 2025-yil 7-yanvardagi 1-6-0-Q/25-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 7-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 24-dekabrda PF-224-son Farmoni ijrosi haqida”gi 1-6-0-Q/25-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasining (keyingi o‘rinlarda - Inspeksiya) metallurgiya tarmog‘ida xavfsizlikni nazorat qilish funksiyasi-Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasiga o‘tkazilganligi;

Qo‘mitaning 2025-yil 1-iyuldan boshlab sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasidagi quyidagi huquqbuzarliklar uchun yuridik shaxslarga jarima qo‘llash tartibini joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi:

xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi talablarini buzish;

radiatsiya va yadroviy xavfsizlikni ta‘minlash bilan bog‘liq qoidalar va boshqa talablarni buzish;

istirohat bog‘lari attraksionlaridan foydalanishda qonunchilik va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablarini buzish;

O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi taklif etilayotgan yadro xavfsizligi sohasidagi xalqaro shartnomalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

quyidagilar:

a) “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq:

Atom energiyasidan foydalanish obyektlari operativ boshqarish huquqi bilan birlashtirilishi mumkin bo‘lgan tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Davlat mulkida bo‘lgan atom energiyasidan foydalanish obyektlari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

Atom energiyasidan foydalanish va ionlashtiruvchi nurlanish manbalari muomalasi sohasidagi faoliyatni amalga oshirish huquqi uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar mulkida bo'lishi mumkin bo'lgan atom energiyasidan foydalanish obyektlari ro'yxati 4-ilovaga muvofiq;

b) Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 6-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari 7-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi e'tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tegishli tuman hokimining o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**